



PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QUVCHILARNING AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Abdullayeva Saodat Mengbayevna

*Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar
universiteti assistenti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada 5-6-sinf o'quvchilarining axborot bilan ishslash kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyihaviy ta'lif, muammoli ta'lif, o'yinga asoslangan ta'lif va aralash ta'lif kabi metodlarning o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni saralash va undan to'g'ri foydalanish ko'nikmalariga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, axborot manbalarini saralash, internet xavfsizligi va media savodxonligi bo'yicha o'quvchilar uchun samarali ta'lif usullari taklif etiladi. Maqolada ta'lif jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali o'quvchilarning axborot bilan ishslash qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar. Raqamli texnologiyalar, kompetensiya, loyihaviy ta'lif, muammoli ta'lif, o'yinga asoslangan ta'lif, aralash ta'lif.

Kirish Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ta'lif jarayoniga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. O'quvchilarning axborot bilan ishslash kompetensiyasini rivojlantirish ularning tanqidiy fikrlash, axborotni saralash va undan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida 5-6-sinf o'quvchilarini axborot bilan ishslashga o'rgatish dolzarb masala hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ahamiyati. Pedagogik texnologiya deyilganda, qisqacha quyidagilarni tushinish mumkin: rejlashtirilgan ta'lif natijalariga, o'quvchilar tomonidan eng samarali ravishda erishishlariga kafolat beradigan pedagogik jarayonni loyihalashtiradigan pedagogika fani yo'nalishi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha qiziqarli kuzatishlar olib borgan Anatoliy Gin so'zlari bilan aytganda: "Bunday texnologiyalar o'quvchilarni yagona fikr

doirasidan ozod qilib, tafakkur osmonida erkin parvoz qilishlariga imkon yaratadi”. Bunday sharoit yaratishda olim “ochiq topshiriqlardan foydalanishni maslahat beradi [5]. Bunday usulda o‘quvchilar kreativ (ijodiy) tafakkur yuritishga, muammo yechimiga turli yo‘llar, izlanishlar orqali yetib borishga yo‘llanadi. “Ochiq topshiriqlar”ning esa yechimi ko‘p bo‘ladi. Demak, har qanday pedagogik texnologiya yangilanishga, takomillashishga yo‘naltirilgan pedagogik g‘oyalarni taqozo etadi. Pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga yo‘naltirish va innovatsion usullar orqali bilim olishlariga ko‘maklashadi[2]. Quyidagi zamонавиу pedagogik texnologiyalar axborot bilan ishslash kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi:

1.Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – raqamli platformalar, onlayn resurslar, elektron kutubxonalar va interaktiv dasturlardan foydalanish orqali axborot qidirish va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish [1].

2.Loyihaviy ta’lim – o‘quvchilarga muayyan mavzuda mustaqil yoki jamoaviy loyihalar yaratish orqali axborot yig‘ish, tahlil qilish va taqdim etish imkoniyatini beradi.

3.Muammoli ta’lim – o‘quvchilarga muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni izlash va qayta ishslash imkoniyatini yaratadi.

4.O‘yinga asoslangan ta’lim – turli ta’limiy o‘yinlar orqali axborot bilan ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘quv jarayonini qiziqarli qilish.

5.Blended learning (aralash ta’lim) – an’anaviy ta’lim va raqamli texnologiyalarni uyg‘unlashtirish orqali axborot bilan ishslash kompetensiyasini mustahkamlash[6].

Ta’lim maqsadi, o‘quv jarayoni mazmuni, tashkiliy shakllar, o‘qitish metodlari, usul va vositalari o‘qituvchilar tajribasi bilan mahoratiga, izlanishlariga, yangilik yaratish salohiyatiga ko‘ra muntazam takomillashib, yangilanib boradi [3]. Jamiyatimizning har jihatdan sog‘lom, barkamol yoshlarni shakllantirishga bo‘lgan talab va ehtiyojlari tufayli bugungi ta’lim-tarbiya maqsadlari yangi mazmun kasb etdi. 5-6-sinf o‘quvchilarining axborot bilan ishslash kompetensiyasini rivojlantirish usullari.

5-6-sinf o‘quvchilarining axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi usullarni qo‘llash mumkin:

Axborot manbalarini saralash bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish – ishonchli va noaniq ma’lumotlarni farqlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

Internet xavfsizligi va media savodxonligi bo‘yicha darslar tashkil etish – o‘quvchilarning raqamli muhitda xavfsiz ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Axborotning dolzarbliji va ishonchliligin baholash bo‘yicha treninglar o‘tkazish – o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Kooperativ ta’lim usullaridan foydalanish – guruhlarda ishlash orqali axborot yig‘ish, uni tahlil qilish va taqdim etish kompetensiyasini shakllantirish [4].

Xulosa 5-6-sinf o‘quvchilarining axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishni talab qiladi. Axborotni izlash, tahlil qilish va undan foydalanish qobiliyatları o‘quvchilarning nafaqat akademik, balki hayotiy muvaffaqiyatlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini tashkil qilish o‘qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayeva S.M. “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari”. O‘quv qo‘llanma, 2024, 157 b.
2. Abdullayeva S.M. “Ta’limda kompetensiyaviy yondoshuvni qo‘llash texnologiyasi”. INTERNATIONAL CONFERENCE SCIENCE AND EDUCATION. 2021 may. 28-29 b
2. Abdullayeva S.M. “O‘quv faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanish”. Лучшие интеллектуальные исследования международный научный электронный журнал. ЧАСТЬ-9 ТОМ-2, Ноябрь - 2023 год
3. Abdullayeva S.M, Payanova F. “Ta’lim tizimida axborot texnologiyasining o‘rni”. Zamonaviy ta’lim va tarbiya: muammolar, yechimlar va rivojlanish istiqbollari Respublika ilmiy anjumani 2021. 251-254 бет

4. Alimov B.N. Kompetensiyaviy yondashuv – o‘quvchilarning matematik savodxonligi va madaniyatini oshirish vositasi sifatida. // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. № 4. 2020. – 367 b.
5. Akbarova S.N, Turdiev N.SH., Sultonova Q.A. O‘quvchilarda tayanch va predmetga oid kompetensiyalarni shakllantirishda qo‘llaniladigan metodlar, usullar va pedagogik texnologiyalar haqida // “Ta’lim texnologiyalari” ilmiy-uslubiy jurnali. - 2015. - № 5. - B. 99-104 .
6. www.ziyonet.uz - O‘zbekiston Respublikasini o‘rgatish portali.